O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO’PLAMI

(II-QISM)

(2024 YIL 25-NOYABR)

SAMARQAND – 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(II-QISM)

(2024 yil 25-noyabr)

SAMARQAND – 2024

UO’K: 330.35(575.1)
O‘ 17
KBK: 65.9(O‘zb)

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari. / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2024 yil 25-noyabr kuni. Samarqand, SamISI, 2024. – 260 bet.

Nashr uchun mas’ullar:
Q.J.Mirzayev – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
D.X.Aslanova- iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, professor.
E.Shavqiyev – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor.
S.A.Isxakova – iqtisod fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent.
G’.S.Mustafoyev – iqtisod fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent.
S.B.Boboqulov – iqtisod fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent.
Sh.I.Artikova – iqtisod fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent v/b

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: Sh.I.Artikova – iqtisod fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent v/b.
Sahifalovchi: F.F.Ulugmurodov

An’anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy sohalarda barqaror o’sish sur’atlarini ta’minlashning ilmiy-nazariy va metodologik yondashuvlari, aholi bandligi, farovonligi, yashash sifati va darajasini yuksaltirishdagi rolini oshirish masalalari, xizmat industriyasi bilan integratsiyalashuv jarayonlaridagi tendentsiyalari va istiqbolli yo’nalishlari, sohani rivojlantirish muammo va yechimlari, boshqaruv usullari va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishda raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish yo’llari, raqamli iqtisodiyot bilan bog’liq soha samaradorligini bank – moliyaviy tizimi orqali oshirish mexanizmlari, korxonalarda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistik hisob usullarini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari, servis tizimi xizmatlarining sifati va samaradorligini oshirish yo’llari, sohani shakllantirishda raqamlashtirish muammolari va ularning yechimlariga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va tezislar o’rin olgan.

В материалах традиционно международной научно-практической конференции вошли статьи и тезисы, богатые научно-теоретическими и практическими рекомендациями, направленными на научно-теоретические и методологические подходы к обеспечению устойчивых темпов роста цифровой экономики в экономических сферах, вопросы повышения роли цифровой экономики в обеспечении занятости, благосостояния,

повышения качества и уровня жизни населения, тенденции и перспективные направления в процессах интеграции с индустрией услуг, проблемы и решения отраслевых задач, методы управления и перспективы развития цифровой экономики в социально-экономическом развитии. улучшение пути, механизмы повышения эффективности сферы, связанной с цифровой экономикой через банковско – финансовую систему, инновационные подходы к совершенствованию методов бухгалтерского учета, экономического анализа, аудита и статистического учета на предприятиях, пути повышения качества и эффективности услуг сервисной системы, проблемы цифровизации в становлении промышленности и пути их решения.

The materials of the the traditionally international scientific and practical conference included articles and abstracts rich in scientific, theoretical and practical recommendations aimed at scientific, theoretical and methodological approaches to ensuring sustainable growth rates of the digital economy in economic spheres, issues of increasing the role of the digital economy in ensuring employment, welfare, improving the quality and standard of living of the population, trends and promising areas in the processes of integration with the service industry, problems and solutions to industry problems, management methods and prospects for the development of the digital economy in socio-economic development. improvement of the path, mechanisms for increasing the efficiency of the sphere related to the digital economy through the banking and financial system, innovative approaches to improving accounting methods, economic analysis, audit and statistical accounting at enterprises, ways to improve the quality and efficiency of services of the service system, problems of digitalization in the formation of industry and ways to solve them.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar ma’suldir. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to’g’ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-720-95-6

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SAVDO VA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH

Azizbek Abduraxmonov
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Shahrisabz filiali iqtisod fani o‘qituvchisi
azizabduraxmonov65@gmail.com
Buriyev Shaxbos Baxtiyorovich
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz
filiali Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-kurs talabasi
shakhbosburiyev7@gmail.com

ANNOTATSIYA. Raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanib borayotgan bugungi kunda savdo va xizmatlar sohasi sezilarli darajada o‘zgarib, raqamli texnologiyalarga moslashmoqda. Raqamli platformalar, onlayn savdo tizimlari, va sun’iy intellektning keng qo‘llanilishi ushbu sohalarda yangi biznes modellarini yaratmoqda va iste’molchilarga ko‘proq qulaylik, tanlov erkinligi hamda xizmatlar sifati oshishini ta’minlamoqda. Ushbu maqolada raqamlashtirish jarayonida savdo va xizmatlar sohasida olib borilishi kerak bo‘lgan ba’zi takliflar va tavsiyalar beriladi.

KALIT SO‘ZLAR. raqamli iqtisodiyot, dron, robot, logistika, elektron tiorat, innovatsiya, Amazon, google wallet, payme, mobil savdo, chatbot, sodiqlik dasturi, raqamli marketing.

РАЗВИТИЕ ТОРГОВЛИ И УСЛУГ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

АННОТАЦИЯ. Сегодня, когда цифровая экономика стремительно развивается, сфера торговли и услуг существенно меняется и адаптируется к цифровым технологиям. Цифровые платформы, системы онлайн-торговли и широкое использование искусственного интеллекта создают новые бизнес-модели в этих сферах и предоставляют потребителям большее удобство, свободу выбора и повышение качества услуг. В данной статье даны некоторые предложения и рекомендации по процессу цифровизации, который должен осуществляться в сфере торговли и услуг.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА. цифровая экономика, дрон, робот, логистика, электронная коммерция, инновации, Amazon, Google Wallet, Payme, мобильная коммерция, чат-бот, программа лояльности, цифровой маркетинг.

DEVELOPMENT OF TRADE AND SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY

ABSTRACT. Today, with the rapid development of the digital economy, the trade and services sector is significantly changing and adapting to digital technologies. Digital platforms, online trading systems, and the widespread use

of artificial intelligence are creating new business models in these sectors and providing consumers with greater convenience, freedom of choice, and improved quality of services. This article provides some suggestions and recommendations that should be implemented in the trade and services sector during the process of digitalization.

KEYWORDS. digital economy, drone, robot, logistics, e-commerce, innovation, Amazon, google wallet, payme, mobile commerce, chatbot, loyalty program, digital marketing.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilgi nutqida “Raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat iqtisodiyotining kelajagi yo‘q” degan jumlalari ham ushbu yildan boshlab raqamli texnologiyalarga diqqat e’tiborni burib yubordi desak mubolag‘a bo‘lmaydi[61].

Raqamlashtirish xalqaro savdoning qanday olib borilishiga ta’sir qiladi. Raqamli texnologiyalar xaridorlar va sotuvchilarga global miqyosda buyurtma berish va qabul qilish imkonini beradi, bu esa shaxsan o‘zaro aloqalarga bo‘lgan ehtiyojni yo‘q qiladi. Bundan tashqari, raqamli yetkazib berish kompyuter tarmoqlari orqali bir hududdan ikkinchi hududga mahsulotlarni masofadan yetkazib berishni osonlashtiradi[62].

Raqamlashtirish bugungi kunga kelib xaridorlarga bir nechta savdo va servis imkoniyatlarini yaratmoqda:

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tahlil va sintez, ilmiy mushohada usullaridan foydalanilgan...

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Elektron tijoratning o‘sishi va kengayishi

Bugubgi kunga kelib, elektron savdo tijorat sohasini o‘zgartirib yubordi. Global tarmoqlar orqali iste’molchilar har qanday joydan tovar va xizmatlarni xarid qilish imkoniga ega bo‘lib, bu savdo jarayonining sezilarli darajada rivojlanishiga olib keldi. Elektron tijoratning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- **Keng tanlov imkoniyati** – iste’molchilar endilikda dunyo bo‘ylab turli mahsulot va xizmatlarni qidirib, tanlash imkoniga ega bo‘lishmoqda.
- **Kamroq xarajatlar** – online savdo do‘konlari uchun an’anaviy do‘konlarga nisbatan kamroq xarajatlar talab qilinadi, bu esa narxlarni pasaytirish imkonini beradi.
- **Tezkor yetkazib berish xizmatlari** – Amazon kabi yirik kompaniyalar innovatsion yetkazib berish tizimlarini joriy qilgan holda iste’molchilarga mahsulotlarni qisqa vaqt ichida yetkazib bermoqda.

---

[61] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil nutqidan iqtibos: // https://president.uz/oz/lists/view/3848

[62] Jahon savdo tashkilotining 2023-yil “Rivolanish uchun raqamli savdo” hisoboti. //https://www.wto.org/english/res_e/booksp_e/dtd2023_e.pdf.

Savdo xizmatlari hajmi (yillar kesimida mlrd so‘m)

Hududlar	*2020*	*2021*	*2022*	*2023*
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1547,3	1913,8	2177,7	2714,3
Andijon	3607,7	4487,8	5439,3	6538,8
Buxoro	3353,0	4062,7	5043,6	5751,4
Jizzax	1591,7	1895,1	2357,5	3478,0
Qashqadaryo	3446,5	4089,2	5108,9	5943,4
Navoiy	1933,4	2313,1	2909,3	3433,6
Namangan	3038,9	3710,5	4590,5	5437,8
Samarqand	4205,2	5175,9	6239,9	7493,1
Surxondaryo	3090,0	3793,7	4553,1	5372,3
Sirdaryo	929,9	1052,7	1256,6	1492,1
Toshkent vil	5607,2	6889,5	8709,8	10526,4
Farg‘ona	4638,7	5530,5	6598,0	8068,9
Xorazm	1755,2	2157,7	2538,4	2929,8
Toshkent shahri	18799,5	25392,4	32281,4	42010,4
O‘zbekiston Respubblikasi	57572,7	72483,2	89816,2	111201,6

Yuqoridagi statistik ko‘rsatgichlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2. Sun’iy intellekt va mashinasozlik o‘rganishi asosidagi xizmatlar

Sun’iy intellekt va mashinasozlik o‘rganishi algoritmlari raqamli iqtisodiyotda xizmatlar sifatini oshirish va iste’molchilar ehtiyojlariga moslashishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan:

- **Shaxsiylashtirilgan tavsiyalar** – onlayn tijorat saytlarida sun’iy intellekt foydalanuvchi qiziqishlari tarixiga asoslanib tovarlarni tavsiya qilishi orqali xarid jarayonini qulayroq hamda osonroq hal qiladi.
- **Chatbotlar va avtomatik yordamchilar** – iste’molchilarga 24 soat davomida xizmat ko‘rsatish imkonini beradi. Chatbotlar savollarga javoblarni tezda joylaydi va xizmatlar sifati oshadi.
- **Xavfsizlik monitoringi** – sun’iy intellekt vositalari firibgarlikni aniqlash va oldini olishda qo‘llaniladi, bu onlayn savdo jarayonini xavfsizroq qiladi.

2. Mobil savdo va xizmatlar

Mobil ilovalar onlayn savdo va xizmatlar ko‘rsatishda muhim vositaga aylandi. Mobil savdoning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- **Har joydan foydalanish imkoniyati** – iste’molchilar har qanday vaqtda va joydan turib xarid qilishlari mumkin.

- **To‘lov qulayligi** – mobil to‘lov tizimlari orqali sotib olish jarayoni tezlashadi, Apple Pay, Google Wallet, Payme, Zoomrad kabi xizmatlar mijozlar uchun xaridlarni soddalashtiradi.
- **Sodiqlik dasturlari va aksiyalar** – deyarli har bir kompaniyalar mobil ilovalarda mijozlarga maxsus takliflar va sodiqlik dasturlari orqali yanada ko‘proq qulayliklar yaratadi.

3. Raqamli marketing va tahlillar

Savdo va xizmatlar sohasida raqamli marketing texnologiyalari orqali kompaniyalar o‘z mijozlari bilan aloqalarni mustahkamlaydi va ularning xatti-harakatlarini tahlil qilib, takliflarni individuallashtiradi.

- **Ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish** – ma’lumotlar tahlili kompaniyalarga mijozlar ehtiyojlarini tushunishga va ular uchun mos mahsulot yoki xizmatlarni taklif etishga yordam beradi.
- **Ijtimoiy media marketingi** – kompaniyalar ijtimoiy tarmoqlar orqali kengroq auditoriyaga yetib boradi va o‘z brendlarini ommalashtiradi[63].
- **E-mail marketing** – Doimiy xaridorlar uchun shaxsiylashtirilgan e-mail orqali takliflar va yangiliklarni yetkazish samarali savdo vositasi sifatida ishlatiladi.

4. Logistika va tezkor yetkazib berish xizmatlari

Raqamli iqtisodiyot yetkazib berish xizmatlarini modernizatsiya qilishda katta ahamiyatga ega. Amazon, Alibaba kabi kompaniyalar logistikani yaxshilash va yetkazib berish jarayonlarini tezlashtirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy qilmoqda. Logistika sohasi ham mamlakat savdo tarmog‘ini hamda xizmatlar qismini rivolantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunga kelib bir nechta yetkazib berish usullaridan foydalaniladi:

- **Dronlar va robot yetkazib beruvchilar** – ayrim kompaniyalar dronlar yordamida kichik tovarlarni tez yetkazish texnologiyalarini sinovdan o‘tkazmoqda. Bundan tashqari yetkazib berish vositalaridan yana biri robotdir. Bilamizki yandex ba’zi tezpishar taomlarni yandex robot orqali yetkazib berish usullaridan foydalanadi. Ayniqsa bu xizmat turning ommalashishi pandemiyya-19 arayonida ancha rivoj topdi[64].
- **Logistika tahlili** – ma’lumotlarni tahlil qilish asosida logistika jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va yetkazib berishni tezlashtirish imkonini beradi.

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot sharoitida savdo va xizmatlar sohasini rivojlantirish nafaqat mijozlarga, balki kompaniyalarga ham katta foyda

---

[63] Rubathee Nadaraja, Rashad Yazdanifard “Social media marketing: advantages and disadvantages”. Article, September 2013 https://www.researchgate.net/publication/256296291_Social_Media_Marketing_SOCIAL_MEDIA_MARKETING_ADVANTAGES_AND_DISADVANTAGES

[64] **Musaab A.AlRushod, Fred Rahbar, Shokri Z. Selim, Fikri Dweiri** “**Accelerating use of drones and robotics in post-pandemic project supply chain**”. **Article, May 2023 - https://www.researchgate.net/publication/370642405_Accelerating_Use_of_Drones_and_Robotics_in_Post-Pandemic_Project_Supply_Chain**

keltiradi. Raqamli texnologiyalar orqali xizmatlar sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlar ehtiyojlariga mos xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari kengaymoqda. Kelajakda sun’iy intellekt, mashina o‘rganishi va ma’lumotlar tahlili kabi texnologiyalarning yanada rivojlanishi savdo va xizmatlar sohasining yanada rivojlanishiga olib kelishi kutilmoqda. Raqamli transformatsiya davom etishi natijasida ushbu sohalar yanada innovatsion va samarador bo‘lib, iqtisodiy o‘sishning muhim omiliga aylanmoqda.

Ushbu maqola savdo va xizmatlar sohasida raqamli iqtisodiyotning ahamiyatini va uni rivojlantirish uchun asosiy yo‘nalishlarni ko‘rsatadi. Bu yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqot olib borish hamda yangi texnologiyalarni qo‘llash kompaniyalarga raqobatda ustunlik keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “2022—2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni. Toshkent sh., 2022 yil 28 yanvar, www.lex.uz
2. V.K.Yo‘ldoshev. Savdo korxonasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. T: TDIU, 2005, 264 bet.
3. R.H. Ayupov, G.R. Boltaboeva. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI, 2020, 575 bet.
4. S.S.Gulyamov, R.H.Ayupov, O.M.Abdullayev, G.R.Baltabayeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. T.: "Iqtisod-Moliya”, 2019, 380 bet.
5. B.Y.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. -T.: “Barkamol fayz media”, 2017, 356 bet.

SPORTCHI YOSHLARNI IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Dusanov Shuxrat Abdirazakovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sportchi yoshlarni irodaviy sifatlarni shakllanishining psixologik mexanizmlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: irodaviy sifatlar, ruhiy faollik, zaiflik, layoqat, irodaviy kuch

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF FORMATION OF VOCATIONAL QUALITIES OF YOUNG ATHLETES

Abstract: This article talks about the psychological mechanisms of the formation of willpower in young athletes.

Keywords: willpower qualities, mental activity, weakness, suitability, willpower

	MAMLAKATIMIZDA SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI	
B.M.Imomov	**CHIQINDILARNI TASHISH VA QAYTA ISHLASH KOMMUNAL XIZMATLARINI AHAMIYATI**	162-165
Azizbek Abduraxmonov Buriyev Shaxbos Baxtiyorovich	**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SAVDO VA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH**	166-170
Dusanov Shuxrat Abdirazakovich	**SPORTCHI YOSHLARNI IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI**	170-174
V- SHO‘BA. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BOSHQA TARMOQLAR VA SOHALARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI		
Набиева Умеда Вализода, Шавқиев Эркин,	**САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШИНИ ОҚИЛОНА ЖОЙЛАШТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ**	175-179
Эшонқулов Акмал Қудратович	**КОРХОНАЛАРДА ПУЛ МАБЛАҒЛАРИ ОҚИМИНИ САМАРАЛИ БОШҚАРИШ**	179-183
Artikova Shoxida Ilyasovna Qahharova Barchinoy G`ofurovna	**XITOY IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANISH YO‘LI VA SABABLARI**	183-186
Ruzmetov Fero'zbek Umidbek O‘g‘li Shavqiyev Erkin,	**SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMINING AHAMIYATI**	186-190
Ф.А.Куватов	**РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ИННОВАЦИЯНИНГ МОҲИЯТИ, ТУРЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ**	191-195
Ж.Б.Ахтамов	**ЁШЛАРДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ ТУШУНЧАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА МАЛАКАЛИ КАДРЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ**	195-198
Eshonqulov Akmal Qudratovich	**KORXONALARDA PUL OQIMI TUG‘RISIDAGI XISOBOTINI MOLIYAVIY BUXGALTERIYA JADVALLAR ASOSIDA SHAKLINI KO‘RIB CHIQISH**	198-203

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(II-QISM)

(2024 yil 25-noyabr)

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti.
Samarqand - 2024.

ISBN: 978-9910-720-95-6

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)
© **“STAP-SEL” MChJ** nashriyoti,
Samarqand.

8144

Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog‘i 16,37
Buyurtma № 0075A/24. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo‘limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko’chasi 60-uy.